



ELEKTRON DARS LIKLAR VA O`QUV RESURLARINING O`ZBEK TILININI O`RGANISHDAGI O`RNI

Komilova Zulxumor Xokimovna

xumor851@mail.ru

Farg'ona davlat universiteti

Tillaqo`ziyeva Gulsanam

FarDU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta`lim tizimida elektron darsliklar va o`quv resurslarining ahamiyati hamda ularni o`zbek tilini o`rganishdagi o`rni yoritilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta`lim tizimida yangi metodik yondashuvlarni talab qilmoqda. Shuning uchun elektron ta`lim vositalaridan samarali foydalanish o`zbek tilini o`qitishda muhim omilga aylanmoqda. Raqamli ta`lim vositalaridan foydalanish jarayonida til madaniyati ilmiy uslub, terminologiya va nutq me`yorlariga amal qilishning ahamiyati ko`rsatilib berilgan. Shuningdek, o`zbek tilidagi yaratilgan Elektron darsliklar va o`quv resurslari o`quvchilarning bilim olishini osonlashtirishini milliy va ma`naviy qadriyatlarni singdirishi ta`lim jarayonida samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi.*

Kalit so`zlar: *o`quv resurslari, elektron darsliklar, raqamli kommunikatsiya internet, raqamli ta`lim.*

Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda raqamli texnologiyalar xususan internet hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelishi hayotimizni tubdan o`zgartirib bormoqda. Dunyo jamiyatida internet tizimi uning imkoniyatlari, qulayliklari yaqqol ko`zga tashlanadi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 23-maydagi "2001-2005-yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, Internet ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishi ta`minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora –tadbirlari to`g`risida"gi qaroriga muvofiq, kompyuter va axborot texnologiyalarini jamiyatning barcha sohalariga, qolaversa, iqtisodiyot fan va ta`lim ishlab chiqarishning barcha sohalariga keng joriy etish, xalqaro axborot tizimlari va internet barcha sohaga kirib bordi.

Elektron darsliklar — bu o`quvchilar va talabalar uchun an'anaviy bosma darsliklarga nisbatan qulay, interfaol va multimedia imkoniyatlariga ega o`quv manbaidir. Bunday darsliklar matn, audio, video, animatsiya va interfaol testlarni o`z ichiga olgan holda o`zbek tilini o`rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Raqamli o`quv resurslari, xususan, mobil ilovalar, onlayn platformalar va interfaol lug'atlar til o`rganuvchilar uchun mustaqil ta`lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu

esa o'quvchilarni o'zbek tilining fonetik, leksik va grammatik jihatlarini chuqurroq o'zlashtirishga undaydi.

Elektron resurslar yordamida yaratilgan mashg'ulotlar individual yondashuvni ta'minlab, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini avtomatik tahlil qilish imkonini beradi. Natijada o'zbek tilini o'rganish jarayoni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari asosida amalga oshadi.

Elektron darsliklar va o'quv resurslarining o'zbek tilini o'rganishdagi mavqeyi katta. Elektron o'quv resurslari bilimlarni milliy asosda yetkazishga o'quvchilar va talabalar dunyo ilm-fanini o'z ona tilida o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari aqamli darsliklar lug'at boyligini kengaytiradi terminologiyani takomillashuviga xizmat qiladi va ta'limda o'zbek tilini mavqeyini mustahkamlaydi. Hozirgi kunda barcha oliy ta'lim muassasasida onlayn platformalar ishga tushirilgan. Bu platformalar yordamida talabalar o'z ona tilida yangi atamalar va ilmiy iboralarni o'rganadilar bu esa ularning lug'at boyligini oshirishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, elektron darsliklar va raqamli o'quv resurslarining joriy etilishi o'zbek tilini o'rganish samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, izlanish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bois ta'lim muassasalarida o'zbek tili fanini o'qitishda zamonaviy elektron vositalarni keng tatbiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.C.C Qosimov.Toshkent-"Aloqachi"-2006 Axborot texnologiyalari
- 2.B.B.Mo'minov "Tafakkur-bo'stoni" Toshkent-2014 Informatika
- 1.B. Ziyomammedov, O.To'laganov Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.Toshkent :O'qituvchi,2020.
3. Tojiboyev, I., & Karimova, N. (2022). Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik asoslari. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 4(3), 87–95.
4. Qodirova, M. (2021). O'zbekistonda raqamli ta'limni joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 2(1), 56–63.
5. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023). Some approaches to teaching programming languages in professional educational institutions. *Education and science in the XXI century*. 2 (38).
6. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023) The role of information technologies in teaching technical sciences in professional educational institutions. *Scientific and practical journal "Technique"*. Issue No.1.

7. Komilova, Z. Kh. (2023). The role and importance of information technology science in today's society. Education and innovative research. Bukhara State University, 2(2), 234-237.

8. Komilova Z.Kh,Nazirjonova. F.S The role of new information technologies in education. Экономика и социум. 2021, № 4-1 (83), -С.167-170.

9. Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi oʻrni va ahamiyati //Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 234-237.

10. Z. X. Komilova & F. S. Nazirjonova. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal). ISSN, 2249-7137.